



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeveva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDI XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonsv Muhriddin Bahriddin o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIVAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
Камилова Наргиза Абдукаxоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI	69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
Qobilova N. Q., Normurodov X. E.	



O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH

Qobilova N. Q.

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Ilmiy rahbar:

Normurodov X. E.

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda kriptovalyutalarning joriy foydalanish holati, ularning moliyaviy tizimdagi o'rni hamda iqtisodiy jarayonlarga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda kriptovalyutalarning muomala va jamg'arish vositasi sifatidagi ahamiyati, xorijiy raqamli aktivlarga bog'liqligi hamda milliy iqtisodiyot sharoitidagi rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kriptovalyutalar bozori, raqamli aktivlar, raqamli moliyaviy infratuzilma, huquqiy tartibga solish, moliyaviy barqarorlik, qiyosiy tahlil, statistik dinamika.

Abstract: This article examines the current state of cryptocurrency usage in Uzbekistan, its role in the financial system, and its impact on economic processes. The study analyzes the significance of cryptocurrencies as a means of circulation and savings, their dependence on foreign digital assets, as well as their development opportunities within the national economy.

Key words: Cryptocurrency market, digital assets, digital financial infrastructure, legal regulation, financial stability, comparative analysis, statistical dynamics.

Аннотация: В данной статье рассматривается текущее состояние использования криптовалют в Узбекистане, их роль в финансовой системе, а также влияние на экономические процессы. В исследовании анализируется значение криптовалют как средства обращения и сбережения, их зависимость от иностранных цифровых активов, а также возможности их развития в условиях национальной экономики.

Ключевые слова: Рынок криптовалют, цифровые активы, цифровая финансовая инфраструктура, правовое регулирование, финансовая стабильность, сравнительный анализ, статистическая динамика.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyoti va moliya bozorlarida kriptoaktivlar hamda kriptovalyutalar muhim o'rin egallay boshladi. Ushbu yangi iqtisodiy toifadagi aktivlar bir qator innovatsion imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, kripto-birjalarning faoliyati, ularning xavfsizligi, foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish hamda soliq tizimi bilan bog'liq masalalar jahon miqyosida diqqat markaziga aylangan.

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida kripto-birjalarning faoliyatini tartibga solish va ularni qonuniylashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kripto-birjalarning qonuniy faoliyati nafaqat mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, balki xalqaro miqyosdagi qonunchilik standartlariga moslashish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, davlat tomonidan kripto-birjalarning litsenziyalanishi hamda ularning faoliyatini tartibga solish bo'yicha yangi qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekistonda kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi xizmat provayderlarini litsenziyalash tartibi va amaliyoti bo'yicha olib borilayotgan islohotlar mamlakatning raqamli iqtisodiyotga integratsiyasini tezlashtirish hamda xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tizimlarga moslashishda muhim rol o'ynamoqda.

Shu bois, mazkur mavzu ayni paytda mamlakatimiz uchun dolzarb bo'lib, har tomonlama chuqur o'rganishni talab etadigan muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda kriptovalyutalarning joriy foydalanishini tahlil qilish bo'yicha kompleks tadqiqotlar soni nisbatan kam bo'lsa-da, so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, kriptovalyutalar, kriptoaktivlar hamda markaziy banklarning raqamli valyutalari (CBDC) ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni jadallashtirmoqda.

O'zbekistonda kriptovalyutalarning joriy foydalanishi va kripto-birjalarning faoliyati global tendensiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, moliya bozorlarida yangi innovatsion imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda xavfsizlik, qonunchilik va soliq tizimi bilan bog'liq muammolarni ham dolzarb etmoqda.

Baxriddin Abdurahmonovning "Mamlakatimizda kriptoaktivlar aylanmasi sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi provayderlar faoliyatini tartibga solish amaliyoti tahlili" nomli maqolasida O'zbekistondagi kripto-birjalarning litsenziyalash va tartibga solish jarayoni tahlil qilingan. Shu bilan birga, xavfsizlik va foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish masalalarining dolzarbligi asoslab berilgan [1].

Sobirova R. va Eshonqulov J. tomonidan yozilgan "Kriptovalyutalarni huquqiy tartibda baholash muammolari" maqolasida global va mahalliy sharoitlarda kriptovalyutalarni tartibga solishdagi asosiy muammolar o'rganilgan. Mualliflar qonunchilikni takomillashtirish, regulyatorlik yondashuvlarini muvofiqlashtirish hamda AML/CTF (Anti-Money Laundering / Counter-Terrorism Financing) standartlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydilar. Ushbu ish O'zbekistondagi regulyativ islohotlarni chuqurroq tushunish va ilmiy asoslashda muhim manba hisoblanadi [2].

Iris H.-Y. Chiu o'zining "Regulating the Crypto Economy: Business Transformations and Financialisation" nomli asarida kriptoiqtisodiyotning moliyaviy tizimlarga integratsiyasi, biznes transformatsiyalari hamda regulyatsiya masalalarini yoritadi. Asarda kripto bozorini tartibga solish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish va innovatsion imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Mazkur manba O'zbekiston sharoitida kripto-birjalarning litsenziyalash va qonuniy faoliyatini ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyatga ega [3].

Ali Saeedi va Anas Al-Fattal tomonidan yozilgan "The Cryptocurrency Market: Investigating Trust, Technology, and Regulations" nomli asarda kripto-bozorning tuzilishi, texnologik jihatlari, ishonchlilik tizimi hamda regulyatsiya masalalari chuqur tahlil qilingan. Mualliflar kriptoaktivlar va kriptovalyutalar bozorida xavfsizlik, foydalanuvchi huquqlari va regulyativ moslashuv jarayonlari samarali faoliyat yuritishning hal qiluvchi omillari ekanligini ta'kidlaydilar. Shu bois, O'zbekistondagi kripto-birjalarning qonuniy faoliyati va litsenziyalash tartibi xalqaro standartlar hamda global bozor tendensiyalariga mos bo'lishi muhimdir [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda kriptovalyutalardan foydalanishni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha konseptual yondashuvlar tavsiflangan. O'zbekistonda kriptovalyutalarning amaliy qo'llanilishining davlat mexanizmini asoslashda konseptual yondashuv, tahlil va sintez, mantiqiy bog'lash hamda abstraksiyalash usullaridan foydalanilgan.

Shuningdek, xususiyl holatlarda tizimli tahlil, institutsional tahlil, tarixiy-komparativ metod, empirik tadqiqot usullari, iqtisodiy-statistik tahlil hamda PEST-tahlil (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar) orqali O'zbekistonda kriptovalyutalardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar baholangan.

Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalar tizimli va multiplikativ tamoyillar asosida o'rganilib, nazariy konsepsiyalarni asoslashda statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kriptovalyuta — bu raqamli moliyaviy aktiv bo'lib, u markaziy bank yoki boshqa davlat organlari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilinmaydi. U blokcheyn texnologiyasi asosida faoliyat yuritadi va naqd pul shaklida mavjud emas, barcha operatsiyalar elektron tarzda amalga oshiriladi.

Kriptovalyutalarning eng mashhurlaridan biri Bitcoin bo'lib, uning asosiy xususiyati markazlashmagan tizim orqali uchinchi tomon aralashuvizs tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini berishidir. Birinchi kriptovalyuta sifatida Bitcoin 2009-yilda Satoshi Nakamoto [5] taxallusi ostida faoliyat yuritgan noma'lum dasturchi yoki dasturchilar guruhi tomonidan yaratilgan.

O'zbekiston global kriptoaktivlarni qabul qilish darajasi bo'yicha Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida birinchi o'rinni, jahon miqyosida esa 33-o'rinni egallagan. Ushbu ko'rsatkich RISE Research va Freedom Horizons hamkorligida, shuningdek KPMG Caucasus and Central Asia, Heemera, Astana xalqaro moliyaviy markazi, Qozog'iston Milliy to'lov korporatsiyasi hamda Mastercard ishtirokida o'tkazilgan raqamli moliyaviy aktivlar bozorini o'rganish natijalariga asoslanadi.

So'nggi ikki yil ichida O'zbekiston 54 pog'onaga yuqorilab, mintaqadagi eng tez o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Hozirgi kunda yarim millionga yaqin O'zbekiston aholisi kriptovalyutalarga egalik qiladi, bu esa umumiy aholining 1,46 foizini tashkil etadi [9] (1-jadval).



1-jadval. Markaziy Osiyo mamlakatlarida kriptovalyuta siyosati

Davlat	Kripto siyosat	O'zbekiston kriptovalyuta bozori "regulated crypto economy model" (tartibga solingan kripto iqtisodiyoti) modeliga kiradi Bu modelning xususiyatlari:
O'zbekiston	litsenziyalangan kriptobozor	davlat litsenziyasi nazorat qilingan birjalar mayning uchun maxsus talablar
Qozog'iston	katta mayning industriyasi	
Qirg'iziston	liberal siyosat	
Turkmaniston	deyarli taqiq	

2-jadval. O'zbekistonda kriptovalyuta foydalanuvchilari soni dinamikasi

Yil	Foydalanuvchilar soni
2020	~150 000
2022	~300 000
2023	512 300
2025	663 691

Izoh: Kripto foydalanuvchilar soni [10].

2025-yilga kelib, 663 691 nafar foydalanuvchi kripto platformalarda ro'yxatdan o'tgan. Shundan 661 850 nafari O'zbekiston fuqarolari, 1 841 nafari esa xorijiy foydalanuvchilardan iborat. 2023-yilda kriptovalyuta egalari mamlakat aholisining 1,46 foizini tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval. O'zbekistonda kriptovalyuta bozori hajmi

Ko'rsatkich	Miqdor
Litsenziyalangan provayderlar aylanmasi	\$1 mlrd+
Davlat byudjetiga tushum	\$3.6 mln+
2025-yil kripto bozori daromadi	\$138.4 mln

Litsenziyalangan kripto xizmatlar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 1 milliard AQSh dollaridan oshgan. 2025-yilda kriptovalyuta bozori daromadi 138.4 million AQSh dollari bo'lishi prognoz qilingan (4-jadval).

4-jadval. Kriptoservislar infratuzilmasi (2025-yil holatiga ko'ra)

Turi	Soni
kriptoservis provayderlari	21
kriptobirjalar	3
kriptomagazinlar	12
kriptodepozitariylar	6

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda kripto infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllanib borayotganini ko'rsatadi (5-jadval).

5-jadval. Kripto industriyasining iqtisodiy ta'siri

Ko'rsatkich	Natija
Yaratilgan ish o'rinlari	207
Davlatga litsenziya to'lovlari	79 mlrd so'm
Oylik litsenziya to'lovlari	28 mlrd so'm

Izoh: Ushbu ko'rsatkichlar kripto sektorining davlat byudjeti va mehnat bozoriga ijobiy ta'sirini ifodalaydi

Ushbu ko'rsatkichlar raqamli aktivlar bozori tez sur'atlar bilan o'sib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda mayning industriyasi qonuniy hisoblanadi, biroq u faqat yuridik shaxslar uchun ruxsat etilgan. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya talab qilinadi hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan, quyosh energiyasidan foydalanish rag'batlantiriladi (6-jadval).



6-jadval. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan taqqoslash

Davlat	Kripto ishtirok (foydalanuvchilar soni)
O'zbekiston	0.5–0.6 mln
Qozog'iston	1.5 mln
Qirg'iziston	Ma'lumotlar cheklangan

Qozog'iston mayning industriyasi bo'yicha yetakchi hisoblanadi, biroq kriptovalyutalarni qabul qilish darajasi bo'yicha O'zbekiston yetakchilik qilmoqda.

Ilmiy-iqtisodiy tahlil asosida kriptovalyuta bozorini makroiqtisodiy model orqali baholash mumkin. Ushbu model quyidagi tarkibiy elementlardan iborat:

Kripto iqtisodiyoti = tartibga solish + raqamli infratuzilma + foydalanuvchilarni qabul qilish darajasi

Faktor	Baho	
huquqiy baza	yuqori	↑
infratuzilma	o'rta	↔
investitsiya	o'sish bosqichi	↗
aholi ishtiroki	past-o'rta	↕

O'zbekiston kriptovalyuta bozori Markaziy Osiyoda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bozor qonunchilik jihatidan tartibga solingan bo'lsa-da, infratuzilma hali shakllanish bosqichida. Shu bilan birga, bozor hajmi nisbatan kichik bo'lib, investitsiya va likvidlik darajasi cheklangan, aholi ishtiroki esa past darajada saqlanib qolmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda yosh va texnologik jihatdan rivojlangan aholining ulushi ortib borayotganligi sababli O'zbekiston global markazlashmagan moliya (DeFi) tizimini qabul qilish reytingida yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda.

2023-yilda O'zbekistonda taxminan 512,3 ming kishi kriptoaktivlarga egalik qilgan bo'lib, bu umumiy aholi sonining 1,46 foizini tashkil etadi. 2024-yil oktabr holatiga ko'ra, mamlakatda kripto sohasida faoliyat yurituvchi 15 ta litsenziyalangan xizmat ko'rsatuvchi provayder mavjud bo'lib, ular tarkibiga 2 ta kriptobirja, 3 ta kriptodepozitariy va 10 ta kriptodo'kon kiradi. Ushbu subyektlarning umumiy aylanmasi 1 milliard AQSh dollaridan oshgan, 2022-yildan buyon davlat byudjetiga tushgan tushumlar esa 3,6 million AQSh dollaridan ortiqni tashkil etgan.

Kripto industriyasining rivojlanishi raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi bilan chambarchas bog'liq. Xususan, IT Park Uzbekistan mamlakatda IT-startaplar va blokcheyn texnologiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. 2024-yilga kelib IT Park rezidentlari soni 2 800 taga yetgan bo'lib, ularda 38 600 dan ortiq mutaxassis faoliyat yuritmoqda. Ushbu raqamli muhit kripto va blokcheyn startaplari rivoji uchun qulay sharoit yaratmoqda.

O'zbekiston rezidentlari kriptoaktivlardan faqat mamlakatda litsenziyaga ega bo'lgan provayderlar orqali foydalanish huquqiga ega. Shu bilan birga, kriptoaktivlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar soliqqa tortilmaydi hamda provayderlar valyuta nazorati talablaridan ozod etilgan.

Bozorni tartibga soluvchi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) tomonidan yangi blokcheyn texnologiyalarini sinovdan o'tkazish maqsadida regulativ "sandbox" mexanizmi joriy etilgan. Mazkur tizim ishtirokchilarga soliq imtiyozlari va boshqa qulayliklarni taqdim etadi. Hozirgi kunda ushbu maxsus rejim doirasida uchta tashkilot faoliyat yuritib, to'rtta loyiha amalga oshirilmoqda.

Masalan, Uzinfocom integratori ".uz" domenida NFT-sertifikatlarni joriy etish ustida ishlamoqda, shuningdek, universal taqsimlangan ma'lumotlar reyestri — Token.uz loyihasini ishlab chiqmoqda. Octobank Mastercard bilan hamkorlikda Crypto Card—UzNEX karta mahsuloti hamda virtual bank kartasini yaratmoqda.

Heemera kompaniyasi sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish texnologiyalaridan, shuningdek, 142 mamlakatdagi hamkorlar tarmog'idan foydalangan holda kriptoaktivlarni kuzatish va qaytarish, shuningdek, provayderlar uchun komplayens yechimlarini ishlab chiqmoqda.

Tether ekotizimida faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalardan biri 2024-yil mart oyida NAPP bilan anglashuv memorandumini imzolagan. Mazkur kompaniya dollarga, yevroga yoki oltin qiymatiga bog'langan stabilkoinlarni chiqaradi. Eng mashhur stabilkoinlardan biri — Tether USD (USDT) bo'lib, 2024-yil yanvar holatiga ko'ra Bitcoin va Ethereum'dan keyin uchinchi o'rinni egallaydi.



Mastercard kompaniyasining O'zbekistondagi bosh direktori Denis Filippovning ta'kidlashicha, mamlakatda kriptoaktivlar rivoji uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda va regulatorning roli bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, kriptoaktivlar va blokcheyn texnologiyalari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, moliyaviy xizmatlarni yanada moslashuvchan va qulay qilish imkonini beradi hamda bozorga yangi ishtirokchilarni jalb etadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va kripto sohasini tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son qarori¹ qabul qilingan. Mazkur hujjat kriptoaktivlar muomalasini huquqiy jihatdan tartibga solish, soliq imtiyozlarini joriy etish va litsenziyalangan subyektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shuningdek, kriptobirjalar jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash (AML/CTF) talablariga qat'iy rioya etishi lozim.

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeksiga hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 899-sonli qonun 2024-yil 19-yanvarda qabul² qilingan bo'lib, uch oy o'tgach kuchga kirishi belgilangan.

O'zbekistonda kripto operatsiyalarni amalga oshiruvchi treyderlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan mazkur qonun litsenziyaga ega bo'lmagan xizmat provayderlaridan foydalanish uchun javobgarlikni belgilaydi. Ushbu qonun asosida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga hamda Jinoyat kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi nazarda tutilgan.

Kripto operatsiyalarni amalga oshirishda xizmat provayderlariga quyidagilar kiradi: kripto-do'kon, kripto-birja va kripto-depozitariy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3150-sonli qaroriga³ muvofiq, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) kriptoaktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish, shuningdek, ushbu yo'nalishda faoliyatni litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshiruvchi vakolatli organ hisoblanadi.

Kripto operatsiyalarni litsenziyaga ega bo'lmagan xizmat provayderlari orqali amalga oshirish uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, mazkur qonun 19-apreldan keyingi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

O'zbekiston fuqarolari kripto operatsiyalarni faqat Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan litsenziyaga ega bo'lgan xizmat provayderlari — kripto-do'konlar, kripto-birjalar va kripto-depozitariylar orqali amalga oshirishlari shart.

Hozirgi kunga qadar litsenziyaga ega bo'lgan kripto-birjalardan biri "Uznex" birjasi ("Kobeo Group" MCHJga qarashli) bo'lib, uning rasmiy sayti va mobil ilovasi orqali kripto operatsiyalarni amalga oshirish qonuniy hisoblanadi. "Kobeo Group" MCHJ xorijiy korxonasi 0001-sonli litsenziyani 2022-yil 28-avgustda qo'lga kiritgan.

Shuningdek, "COINPAY" MCHJ ham kripto-birja faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega. Biroq mazkur kompaniya hozirga qadar to'liq onlayn platformani ishga tushirmagan bo'lib, asosan kripto-do'kon formatida oflayn xizmat ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 2 ta kompaniya kripto-birja faoliyatini amalga oshirish, 10 ta kompaniya kripto-do'kon yuritish hamda 2 ta kompaniya kripto-depozitariy faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega. Mayning faoliyati uchun hozircha birorta tashkilot litsenziya olmagan.

Kripto-do'kon sifatida litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlarga "CRYPTO TRADE NET", "CRYPTO MARKET", "CRYPTO EXPRESS", "COINPAY", "C-BASE", "PAYNET CRYPTO", "CRYPTOCORP", "C-CASH", "T-FIRM" va "T-REX" kiradi. Ushbu kompaniyalar qonuniy asosda faoliyat yuritmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda kripto operatsiyalarni qonuniy amalga oshirish uchun "Uznex" birjasining rasmiy sayti yoki mobil ilovasidan foydalanish, shuningdek, oflayn shaklda litsenziyaga ega kripto-do'konlar orqali kriptoaktivlarni sotib olish mumkin.

899-sonli qonunga muvofiq, Jinoyat kodeksi hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan o'zgartirishlar 19-apreldan kuchga kiradi. Mazkur sanadan boshlab, agar markazlashgan kripto-birjalar (masalan, Binance, OKX, Bybit va boshqalar) Istiqbolli loyihalar milliy agentligidan (NAPP) litsenziya olmagan bo'lsa, ushbu platformalardan foydalanuvchilar hamda litsenziyasiz xizmat ko'rsatayotgan birjalar javobgarlikka tortilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda kripto-birjalar va raqamli aktivlar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar uchun zarur infratuzilma hamda xizmatlar yaratish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda, bu esa raqamli iqtisodiyotning barqaror o'sishini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Kriptovalyuta sohasida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida zarur normativ-huquqiy baza shakllantirilmoqda, ushbu jarayon investorlarni firibgarlik va boshqa noqonuniy faoliyatlardan himoya qilishga qaratilgan bo'lib, bozor ishonchlilikini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonning kriptovalyuta

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son <https://lex.uz/docs/-3806053>

2 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 19.01.2024 yildagi O'RQ-899-son <https://lex.uz/docs/-6763724>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017 yildagi PQ-3150-son <https://lex.uz/docs/-3280183>



va kripto-birjalarni joriy etishdagi yondashuvi innovatsion va zamonaviy texnologiyalarni o'z ichiga olgan kompleks tizim sifatida shakllanmoqda, mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar kelajakda mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallashi kutilmoqda. Shu bilan birga, kripto bozori infratuzilmasini yanada rivojlantirish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, xalqaro tajriba asosida regulativ mexanizmlarni takomillashtirish hamda investitsiya muhitini yaxshilash orqali bozor likvidligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov, B. (2024). Mamlakatimizda kripto-aktivlar aylanmasi sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi provayderlar faoliyatini tartibga solish amaliyoti tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(12). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14629075>. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4051>
2. Sobirova, R., & Eshonqulov, J. (yil ko'rsatilmagan). Kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish muammolari. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3724>
3. Chiu, I. H.-Y. (yil ko'rsatilmagan). Regulating the Crypto Economy: Business Transformations and Financialisation. <https://www.bloomsbury.com/uk/regulating-the-crypto-economy-9781509935741/>
4. Saeedi, A., & Al-Fattal, A. (yil ko'rsatilmagan). The Cryptocurrency Market: Investigating Trust, Technology, and Regulations. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-031-90542-1>
5. Satoshi Nakamoto haqida ma'lumot. Encyclopaedia Britannica. <https://www.britannica.com/biography/Satoshi-Nakamoto>
6. Farmonov, I. (2024). O'zbekistonda kriptoalyuta va kripto-birjalarni joriy qilish mexanizmlari. <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/511>
7. On over \$1 billion turnover: Uzbekistan leads Central Asia in crypto-asset adoption. Tashkent Times. <https://tashkenttimes.uz/finances/14135-on-over-1-billion-turnover-uzbekistan-leads-central-asia-in-crypto-asset-adoption>
8. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) axboroti. 899-sonli qonun haqida ma'lumot.
9. Statista. Cryptocurrencies in Uzbekistan – market data and outlook. <https://www.statista.com/outlook/fmo/digital-assets/cryptocurrencies/uzbekistan>
10. How many people use crypto platforms in Uzbekistan. Caspian Post. <https://caspianpost.com/uzbekistan/how-many-people-use-crypto-platforms-in-uzbekistan>
11. Statista. Digital assets and cryptocurrency statistics in Uzbekistan. <https://www.statista.com/outlook/fmo/digital-assets/cryptocurrencies/uzbekistan>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
